

"DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARIDA OMONIM FE'LLAR IZOHI

Akmalova Bonu Akmal qizi

Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi va jurnalistikasi 1-bosqich magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqolada Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari 2-jildida qo'llangan fe'llarning omonimligi xususida so'z yuritiladi. Maqolada ikki harfli, uch harfli fe'llar va boshqa shunga o'xshash fe'llar o'rtasidagi omonimlik holatlari ko'rib, tahlil qilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: "Devonu lug'otit turk", fe'l, omonim, ikki harfli fe'l, uch harfli fe'l, Mahmud Koshg'ariy

Annotation: This article deals with the homonymy of the verbs used in the 2nd volume of Mahmud Koshgari's "Devonu Lugatit Turk" work. In the article, three-letter verbs and other similar verbs are considered and analyzed by looking at two letters of their own homonymy.

Keywords: "Devonu lug'otit turk", verb, homonym, two-letter verb, three-letter verb, Mahmud Koshgari

Аннотация: В данной статье рассматривается омонимия глаголов, использованных во 2-м томе сочинения Махмуда Кошгари «Девону луг'отит турк». В статье рассматриваются и анализируются трехбуквенные глаголы и другие подобные им глаголы путем рассмотрения двух букв собственной омонимии.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari uch jilddan iborat. Asarning 2-tomida asosan fe'llar izohlangan. SHuning bilan birga, unda fe'l qoidalari, fe'llarning yasalishi, fe'l boblari, fe'l turlari va boshqalar mukammal tushuntirilgan. SHuning uchun bu tom o'ziga xos alohida ahamiyatga egadir.

Ushbu tarjima hijriy 1333-yilda Istanbulda bosilgan bosma nusxasiga asoslangan holda tayyorlangan. Holbuki, tarjimasida eng ishonchli qo'lyozmaga asoslanish zarur edi.

Biroq bu qimmatli yodgorlikning bizgacha yetib kelgan yagona qo'lyozma nusxasi Istanbulda saqlangan, "... biz undan foydalana olmaganimiz uchun ham shu bosma nusxaga asoslanishga majbur bo'ldik. Asarning bosma nusxasida ko'p xatolarga yo'l qo'yilgan. SHuning uchun biz o'z tarjimamizda bu masalaga alohida e'tibor berdik va har qanday kichik bir xatoga ham izoh berdik" Ushbu ishda nuqsonlardan qutulish uchun Istanbuldagi qo'lyozma asosida qilingan tarjima matniga sistematik ravishda solishtirilgan.

Tarjimada turkiy matnlarga emas, balki Mahmud Koshg'ariyning arabcha izohlariga asoslanilgan. Ol nengni tapdi gapining tarjimasida "Ul narsani topdi" bo'lishi kerak edi, lekin tarjimonlar bu gapni "U yo'qolgan narsani topdi" deb tarjima qilgan. Tarjimonlar bu gapda turkiy matnda bo'lmagan "yo'qolgan" so'zini ana shu Mahmud Koshg'ariy izohi asosida orttirganlar. Tarjimada bunday holatlar tez-tez uchrab turadi. Bundan tashqari 2-jild tarjimasida ba'zan qo'shib, ba'zan ajratib yozilgan so'zlarda ham asli saqlangan.

Ayrim so'zlarga izoh bera borishda ikki jihat ustunlik qilgan. Birinchidan, devondagi ko'pchilik so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lsa ham, ba'zilari faqat ayrim dialektlarga, qadimgi klassik adabiyotlarda saqlanib qolgan. Masalan, o'rab bog'lash

ma'nosidagi turmaklamak so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida kam uchrasa-da, bu so'z dialektlarda barqarordir, chunki, Toshkentning ba'zi joylarida, Suzoq, Andijon va boshqa joylarda bu so'z to'la saqlanib qolgan. CHunonchi, sochini to'rmaklab olibdi, etagini to'rmaklab qo'yibdi kabi. Bunday so'zlarning ma'nosi ko'pchilikka noma'lum, talaffuzi va imlosi ham noaniq bo'lib qoladi. Bu xil so'zlarning ma'nosi, imlosi va talaffuzini aniqlashda birdan bir usul dialektlarga va klassik adabiyotlardagi misollarni berib izohlash bo'lgan. Tarjimada aynan shu usul qo'llanilgan.

Ikkinchidan, devon materiallarini hozirgi tilga har tomonlama puxta qiyos qilib tekshirish kabi muhim vazifa hanuz ochiq qolmoqda. Devonni biror tilga nisbat berish uchun uni morfologik, dialektologik, leksik, grammatik tomondan qiyosiy tekshirib, puxta xulosalar chiqarish kerak. Bu xil ish hanuz ishlanmagan, lekin tilshunos olimlarimizning kechiktirishlari mumkin bo'lmagan muhim vazifalardan biridir. Asarning 2-jildi to'la fe'l so'z turkumi haqida bo'lganligi sababli fe'llar o'rtasidagi omonimlikni tahlil qilishga qaror qildik. Asarda fe'llarning ikki harfli, uch harfli qilib ajratiladi va ular o'rtasidagi omonimlikni quyidagi misollar orqali ko'rishimiz mumkin.

Ikki harfli fe'llar omonimligi

I. Qopdi- oyoqqa turdi. [2-jild, 9-10-bet]

Er joqaru qopdi- odam joyidan turdi, oyoqqa bosdi.

Qopar, qopmak tarzida ham qo'llanadi.

II. Qopdi- turdi, qo'zg'oldi.

Tubi qopdi- SHamol turdi, qo'zg'oldi.

III. Qopdi- parvoz qildi.

"Qush qopdi"- Qush parvoz qildi.

I. Kechti- kechdi, o'tdi. [2-jild, 11-bet]

Kun kechti - Oy, kun o'tdi.

II. Kechti-kechdi

Er suv kechti-Odam suv kechdi.

III. Kechti-kechdi, o'ldi, o'tdi

Er kechti- Odam o'ldi.

I. CHapdi- suzdi [2-jild, 10-bet]

Er suvda chapdi -Odam suvda suzdi.

II. CHapdi-sekin urdi

Ol atni chibiq birla chapdi- U otni chiviq bilan sekingina urdi.

III. CHapdi-urdi

CHamaq tat bo'ynin chapdi- Musulmon kofirning bo'yniga urdi.

IV. CHapdi-chapladi [2-jild, 11-bet]

Er eshin chapdi-Odam uyini suyuq loy bilan chapladi.

I. Kerdi-kerdi, cho'zdi [2-jild, 12-bet]

Er yip kerdi-Odam uni kerdi, cho'zdi.

II. Kerdi-kengaytirdi

Beg yo'l kerdi- Odam amir uchun yo'lni kengaytirdi. (Notanish odam o'tmasin uchun, kuzatish joylariga odamlar qo'yishdir. Amir dushmanidan qo'rqqanda bu ish qilinadi).

I. Basdi- bosdi, bosinqiradi, uyqusiradi [2-jild, 16-bet]

Ani burt basdi-Uni qora bosdi, bosinqiradi.

II. Basdi-qahr qildi

Beg el basdi- Amir xalqqa qora bosganday qahr qildi.

III. Basdi-bosdi

Begni yag'i basdi- Amirni dushman bosdi.

IV. Basdi-bosdi

Er qizig' basdi-Odam qizni bosdi.

Uch harfli fe'llar omonimligi

I. Baturdi-yashirdi

Ol so'zin mendin baturdi-U so'zini, sirini mendan yashirdi.[2-jild, 76-bet]

II. Baturdi-botirdi

Ol ani suvqa baturdi-U uni suvga botirdi. Qandni bulamochga botirish kabi, har bir suyuq, yumshoq narsaga botirishga ham bu so'z qo'llanadi.[2-jild, 76-bet]

I. Qopurdi-bo'shatdi

II. Qopurdi-turg'izdi

Ol meni o'rnimdin qopurdi- U meni o'rnimdan turg'izdi, qo'zg'atdi.[2-jild, 76-bet]

I. Kechurdi-gunohini kechirdi,gunohidan o'tdi

Beg aning jazuqin kechurdi- SHoh uning gunohini kechirdi[2-jild, 79-bet]

II. Kechurdi-kechirdi, o'tkazdi

Ol meni suvdin kechurdi-U meni suvdan o'tkazdi, kechirdi.(suvdan kechmoq, o'tmoq)[2-jild, 79-bet]

I. Ko'churdi-ko'chirdi

Ol ani eshdin eshga ko'churdi- U uni uydin uyga ko'chirdi.[2-jild, 79-bet]

II. Ko'churdi-ko'chirib yozdi

Ol bitik ko'churdi-U kitob yozdi[2-jild, 79-bet]

III. Ko'churdi-ko'chirdi, o'tkazdi

Ol ko'chat ko'churdi-U ko'chatni ko'chirdi(o'tkazdi)

U otni bir joydan boshqa joyga ko'churdi.[2-jild, 79-bet]

I. Tug'urdi-tug'di

Urag'ut og'ul tug'urdi-Xotin o'g'il tug'di. Hayvonlar tuqqanda bu so'z ularga nisbatan istiora tariqasida qo'llanadi.[2-jild, 84-bet]

II. Tug'urdi-g'azablandi

Ol menga tug'urdi-U menga g'azablandi[2-jild, 84-bet]

I. Sag'urdi-ichdi

Er suv sag'urdi-odam suv ichdi.[2-jild, 84-bet]

II. Sag'urdi-shimdi

Qum suv sag'urdi-Qum suvni shimdi.[2-jild, 84-bet]

III. Sag'urdi-tupladi

Ol jo'qaru jerin sag'urdi-U osmonga qarab tupladi.[2-jild, 84-bet]

Bu kabi misollar asarda bir qancha keltirib o'tilgan. SHundan xulosa qilib aytsak bo'ladiki, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari terminalogiya soha uchun ham, leksikografiya uchun ham birdek zarur va qimmatli manba ekanligining guvohi bo'lamiz.

Birgina asarning 2-jildida fe'llar o'rtasidagi bunday omonimliklar ham fikrimizning yorqin dalili desak yanglishmaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Devonu lug'otit turk" 1963-yil 2-jild
2. "Devonu lug'otit turk" 1963-yil 1-jild
3. "Devonu lug'otit turk" 2017-yil Toshkent
4. С. М. Муталибов "Туркий сўзлар девони" Ўзбекистон ССР фанлар академияси", Тошкент-1963.